



## TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI.

Abdullayev Shavkat Azimovich

katta o'qituvchi

Andijon davlat texnika instituti katta o'qituvchisi

abdullayevshavkat@gmail.com

Tel+(998) 93-781-09-67

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15723228>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> June 2025

Accepted: 15<sup>th</sup> June 2025

Published: 23<sup>rd</sup> June 2025

### KEYWORDS

Interaktiv doskalar,  
raqamli testlar, multimedia  
darsliklari, virtual reallik,  
vizual, onlayn kurs, vebinar

### ABSTRACT

*Ushbu maqola raqamli texnologiyalar yordamida ta'limga keng kirish imkoniyatining yaratilishi bugungi globallashuv davrida juda muhim strategik omilga aylanganligi ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va zamonaviy bilimlar asosida rivojlanishni ta'minlash to'g'risida yozilgan.*

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli farmoni asosan oliy ta'lim tizimida xam katta e'tibor qaratilmogda

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalarida muhim o'rin egallab, raqamli texnologiyalar global taraqqiyotning bosh omili sifatida tan olinib. kelmogda. Ular inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, iqtisodiyot, tibbiyot, sanoat, ijtimoiy xizmatlar va ayniqsa ta'lim sohasiga chuqur kirib kelmogda Ayniqsa, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va zamonaviy bilimlar asosida rivojlanishni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida axborot oqimini tez va samarali boshqarish, resurslardan unumli foydalanish va masofaviy ishlash imkoniyatlari kengaymogda. Bu texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan Bugungi kunda ta'lim sohasini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalar muqarrar zaruratga aylanmogda.

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta'lim sohasida strategik ahamiyatga ega vositaga aylanmogda. Ular nafaqat o'quv jarayonlarini, balki butun ta'lim tizimining tashkiliy, boshqaruv va nazorat mexanizmlarini tubdan o'zgartirmogda.

Bu texnologiyalar orqali ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish tezlashadi, bu esa rahbarlarning qaror qabul qilish jarayonini samaraliroq qiladi. Xususan ma'muriy hisobotlarni tayyorlash ko'p vaqt va mehnat talab qilgan bo'lsa, hozirda bu ishlar avtomatik tarzda, real vaqtda bajarilishi mumkin. Bu esa inson omiliga bog'liq xatoliklar sonini kamaytiradi, natijada boshqaruv sifati oshadi.[1]

Ta'lim muassasalaridagi barcha ma'lumotlar — talabalarning shaxsiy ma'lumotlari, baholari, o'quv rejalari, o'qituvchilarning ish rejalari va boshqa ma'lumotlar raqamli axborot tizimlarida saqlanadi. Bu ma'lumotlar markazlashtirilgan holda saqlanishi, ularni izlash, tahlil qilish va yangilash jarayonini osonlashtiradi. Natijada, qo'lda hujjatlar bilan ishlashga ketadigan vaqt va xatolarni kamaytiradi

Zamonaviy dunyoda bilim berish tizimi juda tez o'zgarayotgan muhitda faoliyat yuritmoqda. Axborot texnologiyalari va raqamlashtirishning rivojlanishi ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlar nafaqat o'qitish jarayoniga, balki butun ta'lim tizimi boshqaruviga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli platforma va axborot tizimlari orqali talabalar, ota-onalar, o'qituvchilar va boshqaruvchilar o'rtasida tez va oson aloqa o'rnatiladi. Masalan, elektron kundaliklar, onlayn chatlar, video konferensiyalar va boshqa kommunikatsiya vositalari ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga ma'lumotlarni vaqtida yetkazish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonidagi xatolarni kamaytiradi va ko'proq hamkorlikni ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalar orqali talabalarning o'rganish jarayoni va natijalari doimiy ravishda monitoring qilinadi. Bu ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni tezda tuzatish imkonini beradi. Shuningdek, ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalarga ko'proq individual yondoshuvni joriy etish mumkin bo'ladi.

Dars berish uslublarining zamonaviy Interaktiv doskalar, raqamli testlar, multimedia darsliklari, virtual reallik texnologiyalari o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi, olis hududlardagi o'quvchilarga sifatli ta'lim olish imkoniyati onlayn platformalar (XYeMIS, Zoom, Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams va boshqalar) orqali o'qitish har qanday sharoitda, hatto favqulodda vaziyatlarda ham davom ettirilishi mumkinligi yaratildi. Elektron kundalik va reyting tizimlari orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi muntazam ravishda nazorat qilinadi. Bu o'qituvchilarga individual yondashuvni ishlab chiqish va zarur pedagogik choralarni ko'rishga yordam beradi.

O'qituvchilarning esa darslarni vizual, jonli va interaktiv shaklda olib borish imkoniyati kengayadi, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim muassasalari faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish, tahlil qilish va baholash imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi. Ushbu texnologiyani qo'llash ta'limga keng kirish imkoniyatini yaratmoqda. [2]

Ilgari ta'lim faqat yirik shaharlardagi yoki markaziy hududlardagi maktab va oliy o'quv yurtlarida mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirda internet va raqamli platformalar orqali chekka qishloq, tog'li hududlar yoki hatto xorijdagi fuqarolar ham sifatli ta'lim olish imkoniga ega. Onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy o'quv dasturlar, jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar va talabalar uchun an'anaviy ta'lim tizimi ba'zan murakkab bo'lishi mumkin. Raqamli texnologiyalar esa ular uchun moslashtirilgan interfeyslar, audio kitoblar, video darslar, subtitrli materiallar orqali o'rganish, ta'lim resurslari yoshidan qat'i nazar har bir inson uchun ta'lim olish eshigini ochadi. Masalan, kattalar uchun mo'ljallangan onlayn kurslar, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari orqali insonlar hayotining istalgan davrida o'qish va yangi kasb egallash/ ko'plab raqamli ta'lim platformalari bepul yoki arzon narxlarda ta'lim olish imkonini taqdim etadi. Bu esa kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar uchun katta imkoniyat yaratadi. [2] ozirgi zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi va raqamli texnologiyalar

Zamonaviy dunyoda bilim berish tizimi juda tez o'zgarayotgan muhitda faoliyat yuritmoqda. Axborot texnologiyalari va raqamlashtirishning rivojlanishi ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlar nafaqat o'qitish jarayoniga, balki butun ta'lim tizimi boshqaruviga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli texnologiyalar orqali talabalarning o'rganish jarayoni va natijalari doimiy ravishda monitoring qilinadi. Bu ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni tezda tuzatish imkonini beradi. Shuningdek, ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalarga ko'proq individual yondoshuvni joriy etish mumkin bo'ladi.

**Xulosa** Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini boshqarishda mukammal vosita sifatida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular orqali ma'lumotlarni boshqarish avtomatlashtiriladi, qaror qabul qilish jarayoni samaralilashadi, axborot almashinuvi tezlashadi va ta'lim sifati yaxshilanadi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish orqali ta'lim muassasalari kelajakdagi murakkab muammolarga tayyor bo'ladi va zamonaviy talablarga mos ravishda faoliyat yuritadi.

Ular ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, tahliliy qarorlar qabul qilish, shaffoflikni ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda bu texnologiyalar yanada rivojlanib, ta'lim boshqaruvi samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PQ-134-son qarori: "Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va sohani raqobatbardosh qilish chora-tadbirlari to'g'risida".
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 508-son qarori: "2020-2023 yillarda raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish dasturi".

